

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**



**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI FAKULTETI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi IV-bosqich talabasi
Z.YOQUBJONOVAning**

**“ Didaktik o‘yinlardan foydalanish imkoniyatlari va ularni guruxlarda
qo‘llash”**

MAVZUSIDAGI

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

katta o‘qituvchi I.Sattarova

ANDIJON-2015 YIL

Didaktik o‘yinlardan foydalanish imkoniyatlari va ularni guruxlarda qo‘llash

Reja

Kirish

- 1. Didaktik o‘yinlar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llashni nazariy asoslari.**
- 2. Bo‘lajak tarbiyachilar faoliyatida ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘yinlari va ularni tashkil etish.**
- 3. Didaktik o‘yinlar yordamida bolalar og‘zaki hisoblash malakasini shakllantirish.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali kechishi davlatimizni rivojlangan davlatlar hamjamiyati integratsiyalashuvida yosh avlodning ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida bo'lajak o'quvchi bilish faoliyatini yo'lga ko'yish muhimdir. Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmokda" asarida dunyoviy bilimlarga ega bo'lgan, atrofida yuz berayotgan hodisalarga mustaqil munosabat bildirgan shaxsiy manfaatlarini xalk manfaati bilan uyg'unlikda ko'radigan barkamol insonni tarbiyalash hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Biz tafakkurga fikr musobaqarsiga ehtiyoj har qachongidan ham kuchaygan davrda yashamokdamiz. Binobarin, xalkimizning ong va tafakkurida keskin burilish yasash, mamlakatimiz yoshlarining intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish har jihatdan barkamol yoshlarni voyaga yetkazish iqtisodiy jihatdan qudratli davlat barpo etishning asosiy shartidir.

Jamiyat ravnaq topgani sari, o'quvchi mustakil jarayonini tashkil etish ularning bilim sa'viyalari, ish unumdorligini o'stiradi. Bunda didaktik o'yinlar asosiy omil hisoblanadi. Chunki, o'quvchi yoshlar shu jumladan individual xususiyatlariga ko'ra turlicha fikrlashga moyil bo'ladi, ana shu sifatlarni didaktik o'yinlar orqali amalda ro'yobga chiqarish, oz fursatda bilimli, iqtidorli va kasb mahoratin to'la egallagan yoshlarni tarbiyalash, voyaga yetkazish dolzarb pedagogik muammodir. Bunday muhim vazifalarni bajarish oila va umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-xunar kollejlari zimmasiga yuklatilgan, shu jihatdan ularni ilmiy jihatdan asoslangan, tajribada sinovdan o'tkazilgan ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan samarali foydalanish yuzasidan ta'minlash esa maxsus pedagogik-psixologik tadqiqotlarni amalga oshirishni takazo etadi.

Ishning metodologik asosi. Mazkur masala yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlarning tahlili O'zbekiston olimlaridan S.Rajabov, U.Nishonaliev, N.Saidahmedov, E.Seitxalilov, R.Safarova, O.Roziqov, B.Adizov, X. Bo'ydanov, T.X.Hasanov, J.Xasanboev, A.Chorievlar muammoga aloqador masalalar bo'yicha tadqiqot olib borganliklarini ko'rsatadi.

Psixolog olimlarimizdan M.G.Davletshin, E.Goziev, B.Qodirov, V.M.Karimova va boshqalar muammoning psixologik jihatlarida fikr bildirganlar. Shuningdek, G.B.Niyozov, S.X.Xurramova, I. Muhammadjonova, Ya.K.Zaripova va boshqalar o'z tadqiqotlarida muammoga sharq allomalari fikri va xalk og'zaki ijodi asosida yondashganligini guvohi bo'ldik. Shu bilan bir qatorda tarbiyalanuvchilarning ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish samaradorligini oshirish shartlarining aniqlanmaganligi, muammoning uslubiy jihatlarida tajribada sinalmaganligi bu borada maxsus tadqiqot o'tkazish lozimligini ko'rsatadi.

Ishning maqsadi – maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish samaradorligini oshirishning pedagogik asoslarini aniqlash..

1. Didaktik o‘yinlar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llashning nazariy asoslari.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali kechishi davlatimizni rivojlangan davlatlar hamjamiyati integratsiyalashuvida yosh avlodning ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘quvchi bilish faoliyatini yo‘lga ko‘yish muhimdir. Prezidentimiz I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmokda” asarida dunyoviy bilimlarga ega bo‘lgan, atrofida yuz berayotgan hodisalarga mustaqil munosabat bildiradigan shaxsiy manfaatlarini xalk manfaati bilan uyg‘unlikda ko‘radigan barkamol insonni tarbiyalash hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Biz tafakkurga fikr musobaqarsiga ehtiyoj har qachongidan ham kuchaygan davrda yashamokdamiz. Binobarin, xalkimizning ong va tafakkurida keskin burilish yasash, mamlakatimiz yoshlarining intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish har jihatdan barkamol yoshlarni voyaga yetkazish iqtisodiy jihatdan qudratli davlat barpo etishning asosiy shartidir.

Didaetik o‘yinlar inson hayotida shunday ahamiyat kasb etganki, ularga karab inson shaxsiyati, harakteri, manfaatleri, mayillari, qobiliyatlari xakida fikr yuritish mumkin hisoblangan. O‘zbeklar farzandlarini bolaligidanok baxodirlik, harbiylik, jangovorlik malakalarini pshirganlar. Xalk dostonida “Alpomish” dagi sevimli bosh kaxramon Xakimbek xakidagi satirlar shundan dalolat beradi. demak, o‘yinlar bekorchi mashgulot emas. Bu bola uchun birinchi maktab. Bobolar va buvilarning kattikko‘l ota-onalarga “Bolalarning o‘yniga xalakit bermanglar!” deb tanbex berishlari bejis emas-da.

2. Bo‘lajak tarbiyachilar faoliyatida ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘yinlari va ularni tashkil etish.

Bolaning butun hayoti o‘yin bilan chambarchas bog‘liqdir. Bola qanchalik kichik bo‘lsa, unga o‘yinlar uchun shuncha ko‘p vaqt berish lozim.

Kichkintoylar hali mustaqil o‘ynashni bilmaydilar, ularda turmush tajribasi

hamda o‘yinchoqlar bilan o‘ynash tajribasi hali juda oz. Bir yil mobaynida ularga o‘shishning, xususan o‘yin faoliyatidan o‘shishning katta yo‘lini bosib o‘tishga to‘g‘ri keladi, bunda kattalarning tarbiyaviy ta’sir kursatishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘yinda bolalarning kattalar bilan munosabati ham katta ahamiyatga egadir.

Pedagog bolalar o‘yiniga rahbarlik qilayotib, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tarbiyaviy vazifalarni yaqqol tasavvur qilishi lozim. Bolalarda tetik, quvnoq kayfiyat, faol xatti-harakat tug‘dirish; bolalarni o‘yinchoqlar bilan o‘ynashga va ularni ehtiyot qilishga, o‘yinchoqlarning chiroyliligini sezishga o‘rgatish; birgalikda o‘ynash konikma va malakalari, birgalikda bolishga intilish, hamdardlik, bir-birlariga yaxshi munosabatda bo‘lishni tarbiyalash juda muhimdir. O‘yin proqessida tarbiyachi bolalar nutqini o‘stiradi, narsalarning atalishi, nimalarga va qanday ishlatilishi bilan, ayrim belgilari bilan tanishtiradi, tevarak-atrof (bolalarga yaqin va tushunarli bo‘lgan tevarak-atrof) haqidagi tasavvurlarini aniqlaydi va mustahkamlaydi, har narsani bilishga qiziqish tarbiyalaydi;

Tarbiyachi ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘yining yetarli darajada turli-tuman bo‘lishiga, ular mazmunining asta-sekin boyib borishiga harakat qilishi lozim. Bu narsa o‘yinda tarbiya vazifalarining anchagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydi, bolalar hayotini o‘yin asosida yulga qo‘yish imkonini beradi.

Tarbiyachining bolalar o‘yinini, ularning o‘yin paytidagi xulq-atvorini kuzatib turishi muhimdir. Bu pedagogning bolani yaxshi o‘rganishiga, uning xususiyatlarini bilib olishiga faqat o‘yinda emas, balki boshqa faoliyatda, hayotda ham. amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tarbiyaviy vazifalarni belgilab olishiga yordam be-radi.

O‘yinlarni yo‘lga qo‘yish. Bolalar bog‘chasida tarbiya programmasida quvnoq, ta’lim-tarbiyaviy jihatdan qimmatli o‘yinlarni ko‘proq uynatish

uchun bolalarga xilma-xil o'yinchoqlar, qo'llanmalar berish lozimligi qayd qilinadi. Tarbiyachi bolalarning mehnat proqesslari va mashg'ulotlardan qolgan bo'sh vaqtlarida o'yinda aktivlik, mustaqillik ko'rsata olishlari, har bir kichkintoyning o'z xohishiga qarab o'yinchoq, o'yin tanlab olishi haqida g'amxo'rlik silishi lozim. Shu bilan birga, bu yoshdagi bolalar turmush tajribasining kamligini hisobga olib, tarbiyachi ularning o'yiniga rahbarlik qiladi, bolalar faoliyatining xilma-xil va almashinib turadigan bo'lishiga yordam beradi. (Tinch o'yinlar bilan harakatli o'yinlarni navbatlashtirib turadi.)

Bolalar o'yinini yulga qo'yishda vaqtni ham hisobga olish lozim. Ertalabki o'yinlar bolalarda osoyishta, quvnokq, shu bilan birga, faol kayfiyat tug'dirishi kerak. Bolalarga ularga tanish bo'lgan o'yinchoqlar beriladi, tarbiyachi har bir bolaning o'ziga o'yinchoq tanlab olishini kuzatadi. Ertalab ba'zan, gruppada bolalar kam bo'lganida, yangi o'yinchoqni bolalarga ko'rsatib, uni o'ynattirish mumkin. Keyinroq bu o'yinchoqni vaqtincha yashirib qo'yish lozim. Tarbiyachi ertalab bolalarni qabo'l qilib olish bilan band bo'lgani sababli doimo kattalarning nazorati ostida o'ynalishi lozim bo'lgan (mozaika, qirqilgan rasmlar) o'yinchoq va qo'llanmalar, shuningdek bolalarni juda ham hayajonlantirib yuboradigan shovqin-suron bilan o'ynaladigan mashina, velosiped kabi o'yinchoqlar berilmaydi.

Gruppada o'yinchoqlar yetarli bo'lishi va ular qulay joylashtirilishi lozim. Bu narsa hatto yangi sharoitga ko'nika olmaydigan bolaning o'yinchoqni bemalol ko'rishiga va unga qiziqishiga yordam beradi.

Tanish xatti-harakat qilishga undaydigan va murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni vujudga keltiradigan o'yinchoqlar bolalarni yaxshi uyushtiradi. Bunday o'yinchoqlar, masalan: aravachaga, mashinaga solib o'ynash, stulga o'tqazish mumkin bo'lgan qo'g'irchoq, o'yinchoq idish-tovoqlar, kir yuvadigan va dazmollaydigan asboblari o'yin uchun

ajratilgan burchakka joylashtiriladi. Yil boshidayoq garchi bu o‘yinchoqlar harakatlar mosligini talab etmasa ham bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bir necha stol ustiga joylashtirilgan qurilish materiallari ertalab bolalarda o‘yin xohishini paydo qiladi va bolalarni yaxshi uyushtiradi. Shu maqsadda tarbiyachi qurilish materiallaridan uncha qiyin bo‘lmagan, bolalarni ma’lum o‘yinga undaydigan biror narsa: o‘yinchoq mashinalar utadigan darvoza, hayvonlar uchun saroylar, matryoshkalarni olib otish uchun ko‘prik va shu kabilarni- qurishi mumkin.

Ertalab didaktik o‘yinchoqlardan bolalarga tanish bo‘lganlarigina beriladi. G‘ildirakli o‘yinchoqlarning: aravachalar, katalkalar va mashinalarning iloji boricha g‘ichirlamaydigani tanlanadi. G‘ildirakli o‘yinchoqlar bolani aktiv harakatga undaydi, unga zavq bag‘ishlaydi.

Ayrim tarbiyachilar ertalabki qabul paytida, ayniqsa, yil boshida bolalarni ovutishning oddiy usullaridan, masalan, chapak chalish, barmoq o‘yinlaridan foydalanadilar. Ermak, hazil, qiziqchilik-hazil o‘yinlar bolani quvontiradi, chunki ular oddiy, tushunarli va serharakatdir. Tarbiyachi bolaning qolini ushlab, uning barmoqlarini quyidagi sozlarni aytib turib, birin-ketin bukadi:

Bubarmoq — buvamiz,

Bu barmoq — buvimiz,

Bu barmoq — xolamiz,

Bu barmoq — opamiz,

Bu kenja — kichkintoy

Uning oti Xoltoy.

Shuningdek, kichkintoylar:

Boqqa kirasizmi?

Uzum yeysizmi?

Ari chaqsinmi?

Jiz-biz, jiz-biz.

kabi qiziq suzlarni aytib uynaladigan o'yinlarni yaxshi ko'radilar.

Tushki uyqudan keyin bolalarning o'yinini yulga qo'yish uchun birmuncha ko'proq imkoniyatlar mavjuddir. Tarbiyachi, enaga uyqudan turgan bolalarning kiyinishiga yordam beradilar va ularga uynab turishni taklif etadilar. Ayrim bolalarning diqqatini gruppada bo'lgan o'yinchoqlarga alohida jalb qilish lozim. Gruppaga yangi kelgan yoki sustkash bolalar uchun bunday usulni qullanish maqsadga muvofiqdir; uxlab turgandan keyin bunday bolalar lanj bo'lib, nima qilishlarini bilmay turadilar.

Kichik bolalarning uyqudan turish vaqtida katta gruppa bolalarida 3-4 tasini yordam uchun taklif qilish maqsadga muvofiqdir. Ular kichik bolalarga kiyinishda yordam beradilar, so'ng esa shaxsan tashabbus ko'rsatib yoki tarbiyachining «topshirig'ini» bajarib, bolalar bilan o'ynaydilar.

Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi gruppada mavjud bo'lgan o'yinchoqlar qatoriga bolalarga tanish bo'lmagan, ular o'zlari o'ynay olmaydigan o'yinchoqlardan qo'shib qo'yadi.

Mana, tarbiyachi katta yangi biz-bizakni aylantirib yubordi, bolalar uning aylanishini zavq bilan kuzatdilar, uning aylanishidan chiqqan tovushga quloq soldilar. So'ng kichkintoylar bu o'yinchoqni o'zlari o'ynashni o'rganib oladilar yoki tarbiyachi bir-ikki bolani chaqirib biror o'yinchoqni uning nomini aytib turib olib kelishni buyuradi. Bolalar to'planishib, o'yinchoqni birgalashib tomosha qiladilar, uning qanday atalishini, qanday o'ynash kerakligini bilib oladilar. Tarbiyachi hamma bolalarning o'yinchoqlar o'ynab o'tirishlarini, tetik va osoyishta bo'lishlarini kuzatib turadi. Bolalar uyqudan uyg'onganidan to sayrga chiqqunigacha bir yarim soat vaqt o'tadi. Shu vaqt davomida tarbiyachi bolalar mustaqil yordam beradi va ikkinchi mashg'ulotni o'tkazadi. Bog'chada kecha-kunduz bo'ladigan bolalar uchun esa uyqudan oldin har xil

turdagi tinch o'yinlarni yulga quyish lozim. Tarbiya programmasida ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarning har xil turdagi o'yinlari ko'rsatib o'tilgan.

SYUJETLI-ROLLARGA BO'LINIB O'YNALADIGAN O'YINLAR, QURILISH O'YINLARI VA HARAKATLI O'YINLAR Ikki yashar bolalar mustaqil faoliyatlarida harakatli o'yinlar katta o'rin tutadi. Bu yoshda bolalar aravacha, katalka sudrab yurib, ularda narsa tashiydilar, o'yinchoq mashinalarni yurgizadilar, g'ildiraklar g'ildiratib yuradilar va yugurib o'ynaydilar. Dastavval ular hatto obrazli o'yinchoqlarni qam sudrab ichiga narsa solib tashib uynaydilar. Tarbiyachi bolalarni harakatli o'yinlarga qiziqtiradi, shu bilan birga, ularning charchab qolmasliklarini, uzoq vaqt bir vaziyatda o'tirmasliklarini kuzatib turadi. Uzoq vaqt gilamda o'tirib olib qug'irchok, o'yinchoq hayvonlarni uynab o'tiradigan kamharakat bolalarga ko'proq harakatni talab qiladigan o'yinchoqlar berish lozim.

Harakatlarning o'sishi bolaning umumiy kamolotida, uning nerv-psixik jihatdan o'sishida, xarakter ijobiy sifatlarining tarkib topishida katta rol uynaydi. Kuzatishlar uch yoshga qadam qo'ygan bolalar o'yinida uncha murakkab bo'lmagan syujet vujudga kelishini kursatadi. Ular o'yinchoqlar yordamida tevarak-atrofdagi kundan-kunga takrorlanib boruvchi va o'zlariga birmuncha tanish bo'lgan hodisalarni aks ettiradilar. Konkreg harakatlarda: kug'irchoqni cho'miltirish, uxlatish, ovqat tayyorlash, mashinada sayr qildirishlar ifodalanadigan o'yinlar deyarli hamma bolalarga ma'lumdir. Bolalar ancha kichik yoshlaridan boshlabok o'yinda ikki-uchtadan bo'lib gruppaga birlashadilar, lekin bu birlashish hamma vaqt ham yagona maqsad kuzlash natijasida bo'lavermaydi. Bu faqat «yonma-yon turib» o'ynashdir. Ularni bir-biridan ajratmaslik lozim. Asta-sekin, yangi bilimlar egallash bilan, o'zaro munosabat tajribasining ortishi bilan, tarbiyachi maslahatlari ta'sirida bolalar o'yinda o'z harakatlarini o'rtoqlarining harakatlari bilan birmuncha moslashtira boshlaydilar.

Bolalarda uch yoshga to'lish oldida syujetli-rollarga bo'linib uynaladigan o'yinlar, vujudga keladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ma'lum rolni bajarib, ya'ni ona, ota, doktor rolini bajarib o'ynaydilar, ular harakatiga taqlid qiladilar; o'yinga uncha murakkab bo'lmagan syujet kiradi. «Men ota bo'laman, sen esa onasi bo'lasan, yur ishga bo-ramiz»,— deydi Vali (2 yashar-u 11 oylik) Jamila (2 yashar-u 10 oylik). Bolalar qo'lushlashib, xonaning u boshidan bu boshiga yuradilar, so'ngra skameykachaga, hayoldagi «mashinaga» o'tiradilar. Vali u yoq-bu yoqda tebranib, mashinani «boshqaradi». O'yin shu bilan tugaydi.

O'yinda bolalar faqat har kuni uyda, bog'chada ko'rib yurgan narsalarinigina emas, balki yangi faktlar, kiziq voqealarni ham, masalan, bolaning poezdda ketayotganini, avtomashinani tuzatishini, sa'rtarosh bo'lib soch olishini ham aks ettiradilar. Syujetli-rollarga bo'linib uynaladigan o'yinlarda bolaning tasavvuri paydo bo'ladi va o'sadi, bola tasavvurida ijodkorlik elementlari kurina boshlaydi. Bolalar o'yinda hayotdagi qandaydir hodisani aks ettirayotganlarida, faqat shu hodisaning aynan o'zinigina aks zttirib qolmay, balki uni bir oz o'zgartiradilar, o'z his-tuyg'ularini aks ettiradilar, o'zlarining munosabatlarini namoyon qiladilar.

Uch yoshga qadam qo'ygan bolalarga agar oddiy qurilish materiallari, ya'ni g'ishtchalar berilib, qurish usullari o'rgatilsa, ular hayotida qurilish o'yinlari ma'lum rol uynay boshlaydi. Bola ikki yoshidan to uch yoshga to'lgunicha tarbiyachi ta'siri ostida materiallar bilan oddiy o'yinlar qilish va oddiy maqsadga qaratilgan harakatlar (masalan, kubiklarni bir-birining ustiga terib quyishdan) qilishdan mustaqil ravishda qurilishlar qilishga— «qurishga» utadi. Bola qurgan narsasining o'sha tanish bo'lgan narsaga o'xshaganligini sezganida juda xursand bo'lib: «Qarang, ko'priki yasadim»,— deydi. Yil oxiriga borib bolalar nima yasamoqchi bo'lganliklarini oldindan aytadilar yoki kattalarning – Nima yasaysan? – deb aniq javob beradilar. Haqiqatdan ham o'ylagan ishlarini bajaradilar. Bu

narsa o‘yinlarning o‘shidagi yangi, juda muhim bosqichdir. Agar tarbiyachilar bolalarning qurilish o‘yinlariga tug‘ri rahbarlik qilib, ularga ish o‘rgatsalar, qo‘rish o‘yinlarini ko‘rsatsalar, bu bosqich o‘z vaqtida o‘tadi.

Tarbiyachi biror narsa ko‘rayotib, nima qimoqchi ekanini gapirib turadi: “Hozir tepacha yasaymiz... Kattarok kubikni qo‘yib, unga taxtachani qiyalatib qo‘yamiz. Saida, menga taxtachani berib yubor. Dostkachani mana bunday qo‘yamiz. Endi mashina tepachadan g‘izillab tushadi”. Agar bolaning o‘zi biror narsa ko‘rayotgan bo‘lsa, uni rag‘batlantirish, undan nima qurayotganligini so‘rash, qurayotgan narsasining tasvirlamoqchi bo‘lgan narsasiga o‘xshashligini toptirish muhimdir. Zarur bo‘lgan holda, qurilgan narsada qanday kamchiligi borligini aytib berish lozim. Masalan, «Qurgan uyingning tomi qani?», «Tomi bo‘lmasa, yomg‘ir yoqqanda hamma yoq-ho‘l bo‘lib ketadi-ku!» va shu kabilarni aytish bilan bolani ishdagi kamchiliklarni tuzatishga yullab turishi lozim.

Agar bolaning qurish sohasidagi malakasi juda sodda bo‘lsa, qurishni murakkablashtiradigan savollar berishga shoshilmaslik lozim. Bola uchun shu kurgan narsasining uziyoq bir yutuqdir. O‘yin uchun ajratilgan soatda tarbiyachi bolalarning qurilish o‘yinlariga rahbarlik qilayotib, ayrim bolalarning qanday qurishini kuzatib, ularga mashg‘ulotlarda qanday qurilishlar qilinganligini eslatib o‘tadi. Masalan, bolaga matryoshka berib, uning atrofiga qanday qilib devor qurganligini eslashni taklif qiladi. Kattalarning muhim vazifasi - bolani faqat nusxa olib qurishga emas, balki o‘zicha mustaqil biror narsa (uycha, ko‘prik, divan va boshqalar) qurishga ham o‘rgatishdir.

Yil boshidayoq tarbiyachilar harakatli o‘yinlarni yo‘lga qo‘yadilar. Dastavval pedagog kichkina gruppani o‘yinga jalb qiladi, yil oxiriga borib esa harakatli o‘yinlarda gruppaning hamma bolalari, uncha murakkab bo‘lmagan qoidalarga asoslanib («Bolalar harakatini ustirish» bo‘limiga qarang) qatnashadilar.

O'yinlarning o'sishida va bolalar hayotini yo'lga qo'yishda o'yinchoqlar tanlash va ularni qulay joyga qo'yish katta ahamiyatga egadir. Mustaqil harakatli o'yinlar uchun g'ildirakli platformalar, ikki g'ildirakli aravalar, aravachalar, katalkalar, turli katta-kichiklikdagi koptoklar, halqalar bo'lishi lozim. Bolalar stolchalari, uch g'ildirakli velosipedlar, pedalli otlar harakatni o'stirish, chaqqonlik tarbiyalash va bu sohada ish olib borish uchun juda qulaydir.

Syujetli yoki obrazli o'yinchoqlar shunday narsani ko'zda tutgan holda tanlanadiki, ular bolalarga tanish bo'lgan obrazlarni eslatsin yoki suratlar ko'rayotganlarida, kattalarning hikoyasini eshitayotganlarida hosil bo'lgan tasavvurlarini to'ldirib va oydinlashtirib bersin, masalan, bola quyonning o'zini hech qachon ko'rmagan bo'lishi mumkin, lekin u sevimli ertaklar, suratlar orqali quyonning qandayligini yaxshi biladi. O'yinchoqlar orqali bolani unga avval tanish bo'lmagan buyumlar bilan tanishtirish mumkin.

Kichkintoylarning eng sevimli syujetli o'yinchoqlari har xil kattalikdagi (o'g'il va qiz) qo'g'irchoqlardir. "Yumshoq" qo'g'irchoq (agar boshi va qo'llari selluloiddan qilingan bo'lsa yana ham yaxshi) bolalarga juda yoqadi; uni kiyintirib-echintirish ham oson bo'ladi. Qo'g'irchoqning kiyimi tarbiyaviy va didaktik maqsadlarga muvofiq bo'lishi: ko'ylagi did bilan tikilgan, osongina yechib-kiydiriladigan, tugmalanadigan, bog'ichlanadigan bo'lishi; almashtirib turiladigan boshqa kiyim-bosh bo'lishi lozim. O'yin vaqtida qo'g'irchoqlarni kiyintirishni mashq qildirish – mustaqillik va batartiblik malakasini tarbiyalashning sinab ko'rilgan usulidir.

Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarga qiziq o'yinchoqlar berildi. Bu o'yinchoqlar ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Masalan, don chiqiydigan chumchuq, do'mbira chalayotgan xo'roz va boshqalar. Kanop yoki yumshoq sim o'tkazib o'ynaladigan g'ildirakchalar, halqalar,

g'altaklardan ham tanlash ma'qul. Bu materiallar bilan shug'ullanish, qo'lning mayda muskullarini, harakatlar mosligini o'stirishga yordam beradi, diqqatni bir yerga to'play olishni tarbiyalaydi. Tarbiyachi o'yinchoqlar bir qismi, ayniqsa bolalar yaxshi ko'radigan o'yinchoqlarning bir qismi bir xil bo'lishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozim. Masalan, qo'g'irchoqlardan bir nechasining katta-kichikligi hamda ko'ylaklari, matryoshka, mashina va aravachalarning bir nechasi bir xil bo'lishi lozim. Bu yoshdagi bolalar taqlid qilishni yaxshi ko'radilar, shuning uchun ham boshqa bolaning qo'lida biror o'yinchoqni ko'rsalar, o'zlarida ham huddi shunday o'yinchoq bo'lishini xohlaydilar.

Bolalar bir-birlariga xalaqit bermay, tinch o'ynashlari uchun o'yinchoqlarni albatta xonaning har yer-har yeriga qo'yish lozim. 2-3 yashar bolalar nerv sistemasining xususiyatlariga ko'ra tez charchab qoladilar va salginaga hayajonlanib ketadilar, sho'ning uchun o'yinlar vaqtida yetarlicha osoyishtalik, o'yinlar va ayrim mashg'ulotlar vaqtida tinchlik bo'lishi juda zarurdir. Bunday sharoit shuning uchun ham qimmatliki, u bolaning bir qator "mayda" tovushlarni ham, masalan, yog'och g'ishtchalarning, metallardan qilingan idishlarning bir-biriga urilganda chiqargan tovushini eshitish imkonini beradi. Ko'pgina bolalar muassasalarida qo'shimcha uylardan o'yinlar hamda mashg'ulotlar o'tkazish uchun foydalanadilar. Bu yerda agar tarbiyachi nazorat qilib tursa bolalarning mustaqil o'ynashlariga ham ruxsat beriladi.

Asosiy o'yinchoqlar joylashgan katta gilamdan tashqari o'yinlar uchun yana 1-2 gilamchani ajratish lozim. Uy-ro'zg'or buyumlari o'yinchoqlari (tog'oracha, dazmol, pol yuvadigan latta) qo'yiladigan burchak ajratish (taxminan yilning yarmiga borib) ham mumkin, bolalar kir yuvish, dazmollash, kirlarni dorga yoyish o'yinini jon deb o'ynaydilar.

Bolaning o'zi ham o'yin vaqtida qo'g'irchoq stulchasiga, skameykasiga o'tira olishi uchun qo'g'irchoqlar mebeli kattaroq razmerda

bo'lgani ma'qul. Ko'pincha ikki-uch kichkintoyning mebelga o'tirib olib, ayniqcha va qo'g'irchoqlarni ovqatlantirayotganini ko'ramiz. Ayrim muassasalarda bolalarning uy-ro'zg'or buyumlari bilan o'yinlar qilishi uchun ota-onalar kuchi bilan qilingan katta o'yinchoqlar bo'ladi. Ular bolalarning bo'yiga mosligi bilan qulaydir. Masalan, temir yoki fanerdan qilingan plita yonida turib bola ovqat "pishirishi" mumkin, umivalnikning esa haqiqiy jo'mragi bor, uning yonida ro'y-rost turib "yuvinish" va qo'g'irchoqlarni "yuvinitirish" mumkin.

Bu yoshdagi bolalar uchun obrazli o'yinchoqlardan: it, mushuk, xo'roz, tovuq jo'jalari bilan, quyon, ayiq kabi turli o'ynchoq hayvonlar; yengil avtomashinalar va yuk mashinalari, yil oxiriga borib esa samosval va hatto ekskavator kabi o'yinchoklarni o'ynatish mumkin. Kichik yoshdagi bolalarning bunday o'yinchoqlarga qiziqishlari ma'lum, chunki ular mashinalar xizmatini doimo kurib turadilar va tabiiyki, mashinaning harakati uzining dinamikligi bilan bolalar diqqatini jalb qiladi.

O'yinlar uchun uy-ro'zg'or-buyumlari o'yinchoklaridan: idish-tovoqlar, tog'oralar, dazmol va shu kabilardan; bolalarning qug'irchoq va ayiqchalarni o'rab o'ynashi uchun rangdor, oq materiallar parchalari olinadi.

Maskarad k o s t y u m l a r i elementlarini tayyorlash ham ma'qul; bunda bolalar qug'irchoq o'ynayotganlarida, ularga uchburchak ro'mol o'ratib, fartuk va qalpoqcha kiygizib o'ynaydilar (qalpoqchalar turli hayvonlarni aks ettiradi). Kostyumlar elementlarini yil oxirida berish maqsadga muvofiq bo'ladi, bu vaqtda bolalarning fantaziyasi o'sgan va tajribasi ortgan bo'ladi.

Kurilish o'yinlarini yo'lga qo'yish uchun q u r i l i s h m a t y e r i a l l a r i n i n g ko'p bo'lishi (taxminan bir gruppaga 4 yashikda bo'lishi) muhimdir. 2—3 yashar bolalar uchun birmuncha mos keladigan material g'ishtchalar bilan stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinning Agapova

tomonidan bir oz o'zgartirilgan variantidir. Tarbiyachi albatta qurilish materiallariga mayda o'yinchok va buyumlar, masalan, rezina va plastmassadan qilingan o'zi tura oladigan kichik-kichik qug'irchoqlar, matryoshkalar va hayvonlar tayyorlaydi. Bu materiallardan stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlarda va yerda (gilam ustida) o'ynaladigan o'yinlarda ham foydalanish mumkin.

Shuningdek, ichi bo'sh katta qurilish materiali xona ichida va ochiq havoda o'ynaladigan o'yinlar uchun qimmatlidir. Maydonchada o'ynaladigan o'yinlarda fanerdan qilingan turli kattalikdagi yashiklardan, tekis taxtalardan ham bimalol foydalanish mumkin.

Kurilish o'yinlari uchun maxsus stol ajratish lozim.

O'yinchoqlar birin-ketin o'ynatiladi: dastlab bola larga ancha tanish bo'lgan, oddiy o'yinchoqlar, so'ngra bolalardan birmuncha tajriba va fantaziya talab etadigan o'yinchoqlar o'ynatiladi. Masalan, dazmollash uchun dazmol, ikki yarim yashar bolalar kiyishi uchun maskarad kostyumlari elementlari beriladi.

O'yinchoqlarni ko'rgazmadek qilib terib qo'ya berish yaramaydi. O'yinchoqlarning ko'pini tarbiyachi bolalar ishtirokida shkafga olib qo'yadi va o'yin vaqtida olib beradi. O'yinchoqlarning bir qismi albatta tarbiyachida saqlanishi lozim. Oyda bir-ikki marta tarbiyachi ularni almashtirib turadi. Agar biror o'yinchoqni bola, ancha vaqt ko'rmasa, bu o'yinchoq bolani yana jalb qiladi, qiziqtiradi. Bundan tashqari, o'yinchoqlarning hozirda o'ynalmayotganini shkafga olib quyish ehtiyotkorlik, batartiblik kabi sifatlarni muvaffaqiyatli tarbiyalash imkonini beradi.

Tarbiyachi gruppaga xonasiga o'yinchoqlarni olib kelayotib, unga bolalar e'tiborini jalb qiladi. Agar bu o'yinchoq yangi bo'lsa, tarbiyachi uni bolalarga kursatayotib, ulardan bu o'yinchoqni, uning nomini, qanday o'ynalishini bilish-bilmasliklarini so'raydi. Yil boshida asosan o'yinchoqlar

haqida tarbiyachining o'zi so'zlab beradi. Keyinchalik ko'proq bolalarga murojaat qiladi, ularni gaplashishga undaydi, ularning hayotiy taassurotlarini jonlantiradi. Masalan, xo'roz bilan tovuq o'yinchoqni ko'rsatayotib, ularning hozirgina hovlida o'ynab yurgan, don yeyayotgan tovuq va xo'rozni ko'rganliklarini eslatib o'tadi.

Shundan so'ng tarbiyachi har bir bolaga o'yinchoqni berib, birpas o'ynab ko'rishni, keyin esa o'rtog'iga berishni aytadi. O'yinchoqlarni bir vaqtda bir necha bolaga berish uchun yuqorida aytganimizdek tarbiyachida 2—3 ta bir xil o'yinchoq bo'lgani yaxshi.

Pedagog vaqt-vaqti bilan qanday o'yinchoqlar borligini va ular qaerda saqlanishini esga tushirish maqsadida bolalar gruppasi bilan xonani aylanib chiqadi. Bu ishni ertalab, nonushtagacha, kechqurun qilish mumkin. Bolalar bo'sh vaqtlarida gruppada mavjud bo'lgan o'yinchoqlarni o'ynash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Tarbiyachi gruppaga turli o'yinchoqlar olib kelish bilan kifoyalanib qolmay, 2—3 yoshdagi bolalar o'yin faoliyatlarining o'sishiga ham aktiv ta'sir kursatadi.

Tarbiyachi bolalarni kuzatayotib, ba'zan ularning tashabbusi boshlanib ketgan o'yinga qo'shib ketadi. Bolalarning o'yinida kattalarning ishtiroki turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, bola aravachaga qo'g'irchoq, ayiqcha o'tqazib olishning fahmiga yetmasdan, uni quruq g'ildiratib yuradi. Tarbiyachi: «Vali aravachaga ayiqchani o'tqazib o'ynagin» deb maslahat beradi (keyingi safar bolaning o'zi aravachaga ayiqchani o'tqazib aylantiradi). Agar qo'g'irchoq yoki ayiqcha aravachadan tushib qolsa va buni bola sezmasa, tarbiyachi uni astagina yerdan olib, silab-siypab, yiqilib tushgani uchun unga achinish izhor qiladi. Yoki tarbiyachi plita yasab, uni bolalarga takdim etadi va endi plitada kasha, suyuq ovqat pishirishlari, sut qaynatishlari mumkinligini aytadi.

Bolalarning ko'rgan narsalarini, ya'ni oyilarining plitada ovqat

pishirishini, sut ichayotgan mushukni ko'rganlarini va shu kabilarni ularning eslariga tushirish ma'qul. Qo'lida o'yinchoq-mushukni ushlab turgan bolaga tarbiyachi: «Sen ham mushukchanga sut ichir»,— deb maslahat beradi.

Tarbiyachi o'ynab turgan bolalarga ularning tajribasiga, bilimlariga suyanib, yana qanday o'ynash mumkinligini aytadi, maslaxatlar beradi. Masalan, 2 yarim yashar bolalardan bir nechasi skameykalardan tarbiyachi qurib bergan mashinada o'tirishibdi. Ular qug'irchoq ko'tarib olib, u bilan gaplashib ketishyapti. Tarbiyachi bolalar yoniga o'tirib: «Bolalar, o'rmonga ketdik, mevalar terib, qug'irchoqlarni mehmon qilamiz», deydi. Shunday qilib, bolalarda maqsad vujudga kelib, bolalar o'yinda biror maqsad qo'yishni o'rganadilar. Bolalar tarbiyachi bilan birga mashinadan tushib, tarbiyachiga taqlid qilib mevalar terib, qug'irchoqlarni mehmon qiladilar, keyin yana mashinaga o'tirib ketadilar. O'yin mazmunini bu tarzda aytib turish tug'ri deb hisoblangan, chunki bolalarning ko'pchiligi o'rmonga borgan bo'lib, mevalar terganlar.

Bolalarga o'yin mazmunini aytib turish bilan (lekin o'yinni bolalarga zo'rlab o'ynatmaslik kerak) tarbiyachilar bolalarda o'yinda mustaqillik, tashabbuskorlik ko'rsatish kabi xislatlarning o'sishiga yordam beradilar. Tarbiyachi tomonidan berilgan savol, o'yin to'g'risida gaplashish, o'yin, xarakteriga ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ahamiyatli bo'lgan o'zgarish kiritadi. «Qo'g'irchogingni cho'miltirib bo'ldingmi? Xali bo'lmadingmi? Kel, ikkalamiz cho'miltiramiz!» Yeki: «Matryoshkalar qaerda turishadi? Ularning uyi yo'qmi? Matryoshkalarga uy qurib berchi!» «Avtomobilingning garaji yukmi? Garaj qurib berish kerak» kabi savol-javoblar ana shunday suhbat temasi bo'la oladi. Agar bolaning o'zi birorta inshootni qurolmasa, pedagog yordam beradi yoki bolalardan birortasini yordamga chaqiradi.

Yilning boshida, bolalarning o'yinga oid tajribalari ayniqsa ham

bo‘lib, ular o‘yinchoqlar bilan qanday o‘ynashni bilmaganlarida, tarbiyachi maxsus o‘yinlar uyushtirib, o‘yinchoqlar bilan qanday o‘ynashni (ularni qanday ishlatishni, tug‘ri foydalanishni) ularga urgatadi. Bunda o‘yin asosan kattalarga taqlid qilish asosida boradi.

Masalan, ertalab bolalar gruppaga asta-sekin yig‘ilayotganida yoki kunning ikkinchi yarmida o‘yin soatlarida tarbiyachi uch-to‘rt bolaga g‘ishtchalardan qanday qilib devor qurishni, stul, skameyka yasashni ko‘rsatadi, keyin matryoshkani olib, uni stulga o‘tqazadi yoki matryoshkani xuddi bog‘chada sayr qildirib yurganday olib yuradi. Bolalar o‘yinga qiziqib, tarbiyachining harakatlarini takrorlay boshlaydilar. G‘ishtchalarni yashiklarga qanday taxlashni bolalarga har kuni ko‘rsatadi, g‘ishtni olib berishga, joyiga tartib bilan taxlab quyishga bolalarni jalb qiladi. Bunday rahbarlik qilinganda bolalar qurilish materiallarini to‘dalab tashlamaydilar, o‘yinchoqlarni har qaepra tashlab ketmaydilar, kubiklarni, «xodachalar» ni stolga urib taraqlatmaydilar. Boshqa hollarda tarbiyachi ehtiyotlik bilan qo‘g‘irchoqni olib, uni avaylab adyolga uraydi - aravachaga solib tebratadi, tebratishni birorta bolaga taklif qilishi ham mumkin; koptokni bir-biriga (0,5—1 m masofada turib) qanday dumalatish, bir-biriga tashlashish, darvozadan dumalatib kirgizish, yakinrokdagi katta nishonga (masalan, katta kubga, yashikka) tekkizish mumkinligini o‘rgatadi.

Kattalar uyushtirib bergan bunday o‘yinlar protsessida bolalarni o‘yinchoqlarni almashishib o‘ynashga, bir-biriga berib turishga o‘rgatishi lozim. Masalan, Karima qug‘irchoqni o‘rab Kodirga beradi, Qodir qo‘g‘irchoqni aravachaga solib, aravachani Salimga beradi, Salim aravachani gilam ustiga olib boradi: u yer tinch, hech kim qo‘ng‘iroq Zinani uyg‘otib yubormaydi. Bunday o‘yin-mashg‘ulotlarning takrorlanaverishi natijasida bolalarda umuman o‘yinlarda, shuningdek o‘z tashabbuslari bilan yuzaga keladigan o‘yinlarda o‘zaro hamkorlik ko‘rsatish malakasi tarkib topadi. Tarbiyachi bunday o‘yinlarga rahbarlik qilish bilan har kuni

bolalarning bir-birlaridan o‘yinchoqlarni tortib olmasdan, balki bir-birlariga berishga, birgalashib o‘ynashga o‘rganishlari haqida g‘amxo‘rlik qiladi. Pedagoglar bolalarning tajriba va qiziqishlarini hisobga olib, ularni yangi o‘yinlarga jalb qiladilar. Dastavval o‘yin tanlash va uning mazmunini o‘stirish tashabbuskori tarbiyachi bo‘ladi; masalan, bir necha bolaga o‘zining doktor bo‘lishini, qo‘g‘irchoq-bolalarni davolashini aytadi.

Bolalar qo‘g‘irchoqlarini tarbiyachining oldiga olib keladilar, tarbiyachi esa doktor bo‘lib bir necha protsedurani bajaradi, bolalar bilan gaplashadi. Mana, tarbiyachi oldindan bir necha taxtacha tayyorlab qo‘yib, oddiy samalyot yasab beradi. Bir necha bola taxtalarni to‘g‘ri qo‘yishda, ya’ni “samalyot qurishda” yordam beradi. Samalyot tayyor bo‘ldi, tarbiyachi hamma bolalarni samalyotda uchishga taklif etadi. Bolalar taklifni quvonch bilan qabul qiladilar; tarbiyachi bolalarga tanish bo‘lgan:

Qarang qanday chiroyli,

Biz yasadik samalyot.

O‘tiringiz bolalar,

Uyimizga uchaylik.

she’rini aytganda, ularning quvonchlariga quvonch qo‘shiladi.

Bolalar tarbiyachiga ergashib she’rning ayrim so‘zlarini quvonib takrorlaydilar. Agar tarbiyachining fikri bilan vujudga kelgan o‘yindan bolalar xursand bo‘lib, zavq bilan o‘ynasalar, bu o‘yinga o‘zlarining ham biror-bir fikrlarini (samalyotga qo‘g‘irchoqlari bilan chiqadilar, ular bilan gaplashadilar, samalyotdan tushadilar, yana chiqadilar va h.k) qo‘shsalar, demak, tarbiyachi bolalarning his-tuyg‘ularini qo‘zg‘ata olgan, o‘zining taklifi bilan ularning mustaqilligini bo‘g‘ib qo‘ymagan bo‘ladi.

Bolalarning individual va birgalashib o‘ynaydigan qunlarida badiiy so‘z, ashula aytib turish juda foydalidir, chunki bunda bolaning ijobiy emotsional holati yanada yaxshilanadi, uning nutqi o‘sadi, uncha murakkab bo‘lmagan ashulalarni aytish malakasi ortadi. Masalan, o‘yinchoq-ot ustida

kichik bola o‘tiribdi. Tarbiyachi kulib:

Bor mening bir toychog‘im	Minsam sakraydi kukka,
Ko‘zi tiyrak munchog‘im.	Irg‘ishlab dikka-dikka.
Sevgan adash — o‘rtorim.	Chux desam tordan tikka
Yaqin qilar yirog‘im.	Uchib o‘tar chaqmog‘im.

deydi.

Yuk tashish mashinasida bir bola qo‘g‘irchoq olib ketyapti.

Tarbiyachi zavq bilan:

\ Ali «zil»ga o‘tirib,
Pedal bosar, rul burib:
— Qoch, qoch, qoch,— der,
Yo‘lni menga och!—der.

deydi.

Birmuncha muddat o‘tganidan keyin bolaning «Toychoq‘im» qo‘shig‘iga o‘xshagan qo‘shiqni yoki

Qoch, qoch, qoch,
Yo‘lni menga och

kabi she’riy misralarni aytib o‘ynayotganini ko‘ramiz.

Bola ikki yarim yoshga yetganida tarbiyachi o‘yinga rahbarlik qilishning yangi yo‘llarini qo‘llanadi. U ko‘proq bolaning tajribasi va ko‘nikmasiga suyanib, uning tashabbusini o‘stirishga harakat qiladi. Shu tufayli o‘yinga ta’sir etish metodlarida tayyor namunalar (qo‘g‘irchoqni qanday yo‘rgaklashni, uni allalashni kursatish) kam o‘rin egallaydi. Endi bolaning o‘zi ko‘p narsani bajara olishini nazarda tutish muhimdir, shunga muvofiq unga savollar berish, unga biror narsani o‘ylab topishni taklif etish, uning oldiga konkret vazifalar qo‘yish va agar lozim bo‘lsa, uni qanday amalga oshirishni aytib turish kerak bo‘ladi. «Ko‘prikcha qurgin,— deydi tarbiyachi bir bolaga,— uning ustidan mashina o‘tsin; qara-chi, ko‘prikcha yasashing uchun qanday kubikchalar va g‘ishtchalar kerak bo‘ladi..., mana

endi uzunroq ‘ini olgin”

Syujetli-rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning o‘shishiga, ularning tarbiyaviy ahamiyatining oshishiga didaktik va harakatli o‘yinlar, stol ustida ko‘rsatiladigan o‘yinchoqlar teatri zo‘r ta’sir kursatadi.

Qoidali o‘yinlar, insdenirovkalar mazmunan bolalarga tushunarli va dinamik bo‘lib, emotsional kechinmalarni vujudga keltiradi; ular konkret harakatlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun ham tabiiy ravishda bolalarning biror-bir syujetli-rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarida aks etadi.

Tarbiyachi bunga turli usullar bilan yordam beradi. Masalan, u stol ustida ko‘rsatiladigan teatrdagi «Sholg‘om» ertagini bir necha bor ko‘rsatib, ertak qaxramonlari haqida bolalar bilan suhbatlashadi, bu o‘yinni o‘ynashni bolalarning o‘zlariga taklif qiladi; keyinpoq bolalar o‘z tashabbuslari bilan bobo, buvi, nabirani aks ettiradilar.

Tarbiyachilar quyonlar uchun quloqlar yasab beradilar, bolalar esa quyonga o‘xshab sakraydilar yoki kasal bo‘lib qolgan quyonni ifodalaydilar; bir bola kasal quyon bo‘lib gilam ustiga yotsa, ikkinchi bola qug‘irchoqning adyoli bilan uning ustini yopib quyadi.

O‘zining mazmuni jihatidan tushunarli, tuzilish jihatidan dinamik bo‘lgan chiroyli suratlar bilan bezatilgan bolalar kitobchalari ham o‘yinlarga ijobiy ta’sir kursatadi. Masalan, tarbiyachi bolalarga N.Zabilaning «Yasochkaning boqchasi» degan kitobini o‘qib beradi, uning mazmunini bolalarga tushuntirib beradi. Gruppadagi bir qug‘irchoqda Yasochka deb nom quyishga qaror qiladilar. Tarbiyachi bolalarning kichik bir gruppasi bilan o‘ynayotib, kitobdagi ayrim epizodlarni ko‘rsatib beradi, keyin bolalar ham shunday o‘ynay boshlaydilar.

O‘yin qanchalik mazmunli bo‘lsa, u bolalarni shunchalik yaxshi uyushtira oladi va tarbiyachi uchun ham qimmatliroq bo‘ladi. Lekin bolaning o‘yin faoliyatini o‘stirishga shoshilish, unga uzining xohishini bajartirish yaramaydi. Aktiv rahbarlik qilishni o‘yinda bolaga to‘la erkinlik

va mustaqillik berib quyish bilan bog'lash zarur.

Didaktik o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar

Didaktik o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar mashg'ulotlar o'tkaziladigan soatlarda haftada bir-ikki marta, shuningdek o'yinlar uchun ajratilgan soatlarda o'tkaziladi.

Bu o'yinlar ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya protsessida alohida o'rin egallaydi. Ular bolaning sensor jihatdan o'sishiga, ya'ni bilim olishning manbai bo'lgan sezgining o'sishiga qaratilgandir. Didaktik o'yinchoqlar o'ynash bolalar nutqining o'sishiga, saviyasining kengayishiga yordam qiladi, narsalarning katta-kichikligi, rangi, ovoz chiqaruvchanligi, fazodagi o'rni, ustki qismining sifati kabi xususiyatlarini ajrata bilish qobiliyatining o'sishiga yordam beradi.

Bolalar sezgilarini bir tekisda va o'z vaqtida o'stirib borish juda muhimdir. Chunki, bolalarda tevarak-atrof to'g'risidagi to'g'ri tasavvur ana shular asosida hosil bo'ladi, bolaning idroki boyiy va oydinlasha boshlaydi. Yirik rus pedagoglaridan biri bo'lgan Ye.I.Tixeeva bolalarning sensor tarbiyasiga alohida ahamiyat berdi. Bolaning yangidan hosil qilgan har bir sensor tasavvuri qanchalik yorqin va aniq bo'lsa, shunchalik ko'p analizatorlar ishtirok etadi, deydi Tixeeva. Shuning uchun xam uning amaliyotida narsalar bilan harakat qilish, ularni ko'rish, solishtirish, taqqoslash (sezish, ko'rish idroki asosida) keng ko'llanildi.

Bolalar mustaqil o'yinlarida didaktik o'yinchoklardan ko'prok; foydalanadilar. Lekin bolalarning erkin o'ynashlari uchun ularga o'yinchoqlar berishdan avval, uni qanday o'ynashni ko'rsatib berish, ba'zan oldindan maxsus mashg'ulotlar o'tkazish lozim.

Didaktik o'yinchoqlar bilan o'yin-mashg'ulotlarda bolalarni 8—12 tadan kichik gruppachalarga birlashtirish tavsiya etiladi. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun rangdor va bir xil rangdagi halqali

minorachalar (5—6 halqali), matryoshkalar, bochkachalar, qo‘ziqorinlar, turli rangdagi vkladishlar, rangdor sharchalar, kubchalar tavsiya etiladi: Bu o‘yinchoqlarning deyarli har biridan bir necha programma vazifalarini hal qilishda, masalan, rangni va katta-kichiklikni aniqlashda, mayda harakatlarni o‘stirishda, shaklni sezishda foydalanish mumkin. Ishni eng oddiydan boshlash juda muhimdir. Masalan, bolalar tarnovchadan rangli sharchalarni dumalatadilar. Ular sharning xususiyatlarini sezadilar: u silliq, yaxshi dumalaydi, lekin sharchalarni bir joyga to‘plash hech mumkin emas, ular har tomonga dumalab ketaveradi.

Bolalar bir xil rangdagi minorachalarni yig‘adilar. Ulardan katta-kichiklikka qarab izchillikka albatta rioya qilish talab qilinmaydi. Yulga quyilgan xatolarni tarbiyachi tuzatib boradi, ularning diqqatini qaysi halqacha katta, qaysisi kichikligiga jalb qiladi.

Minorachalarni yig‘ish malakasini bolalar asta-sekin, bir necha, oylar mobaynida egallab boradilar. Faqat yilning oxiriga borib ular bir necha halqachali minorachani tug‘ri yig‘ishni o‘rganib oladilar. Tarbiyachi bolalarga katta va kichik matryoshkalarni bir-biridan farq qila olishni o‘rgatadi, bolalarning hosil qilgan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlay borib, asta-sekin ularni murakkablashtiradi.

O‘yinlar vaqtida bolalar bilan gaplashib turish, «Hozir ko‘ramiz, qaysi halqacha katta ekan», «Sen minorachani tug‘ri qurdingmi?», «Sharcha qanday yaxshi dumalayapti», «Qo‘lingdagi nima?» kabi so‘zlarni aytish bilan ular tasavvurining hosil bo‘lishiga yordam berish zarur.

Bolalarning biror didaktik vazifani o‘zlashtirib olishlariga erishishda tarbiyachi xilma-xil usullardan foydalanadi. Masalan, bolaga matryoshkalarning juftini: kichik matryoshkaga— shunday kichik matryoshkani, katta matryoshkaga — shunday katta matryoshkani topishni yoki rangli sharchalarni xuddi shu rangdagi savatchalarga solishni buyuradi. Bolaning narsani ko‘ribgina qolmasdan, uni qo‘lida ushlab

kurishi, uni ishlatib koʻrishi, solishtirishi juda muhimdir.

Stol ustiga qoʻyib oʻynaladigan chop qilingan didaktik oʻyinlardan 2—3 yashar bolalar uchun bolalar bogʻchasida tarbiya programmasida koʻrsatilgan loto «Kichkintoylar uchun suratlar», «Qu-qu-qu», «Juft suratlar» kabi kesilgan (2 va 3-qismga) suratlar va boshqalar foydalidir. Dastavval tarbiyachi ayrim bolalar bilan va kichik gruppachalar bilan bu suratlarni koʻrib chiqadi, ularning narsalar tasvirini tanigan-tanimaganliklarini aniqlaydi, kesilgan suratlarni bir butunga yigʻishni urgatadi.

Bolalar 2 yarim sshga yetganlarida mustaqil ravishda kesma suratlarni yigʻib butlay oladilar, minoracha, qoʻziqorinlarni tugʻri joylashtirishni bilib oladilar; 6—7 yashar bolalar bilan tarbiyachining bevosita yordamisiz loto uynaydilar.

Har bir bolaning oʻyinda xilma-xil didaktik materiallardan foydalanishini kuzatib turish lozim.

Xalq oʻyinlarining tarbiyaviy ahamiyati bebaxo, shu boisdan ham murabbiy oʻquv-tarbiyaviy jarayonda ulardan foydalana bilishlari lozim. Oʻyinlarni tanlash va tashkil etishni quyidagi omillarini hisobga olmok zarur;

Oʻyinchining yoshi: Bolalar uchun eng oson oʻyin tanlanadi, unga yangi koʻshimchalar va qoidalar kiritish hisobiga murakkablashtirib boriladi. Oʻyinni, albatta, murabbiy ishtirokida joʻr boʻlib, qoʻshiq aytish bilan boshlash kerak. Bolalar oʻz harakatlarini nazorat kiishlari juda kiyin boʻladi. Shuning uchun kattalar namuna boʻlmoklari zarur.

Oʻyin oʻtkaziladigon joy: Oʻyin zalda, xonada, keng yOʻlakda, ochiq xavoda oʻtkazilishi mumkin. Oʻyinlar xonada oʻtkaziladigon boʻlsa, uni shamollatib, obdon supirib-sidirish lozim.

Oʻyin ishtirokchilarining mikdori: Oʻyinni birdaniga butun sinf yoki gurux bilan oʻtkazish shart emas, ayniksa xona uncha keng boʻlmaganda, mittivoylarni guruxga boʻlish mumkin: oʻgil bolalar va kiz bolalarga, kuchlilar va kuchsizlarga,

o'ynovchilarga xakamlarga va x.k. O'yinda ishtirok etish har bir bola uchun qiziq bo'lmogi lozim.

O'yin uchun jixozlarning bo'lishi: Ko'pgina o'yinlar uchun jihozlar: to'plar, sakramachoqlar, bayroqchalar va x.k. Ular oldindan yetarli mikdorda tayyorlab ko'yilmogi darkor.

Murabbiy bolalarga o'yin qoidalarini tushuntiradi. U shunday joyda turishi kerakki, hama uni, u hammani ko'ra olsun. yaxshisi, bolalar bilan doira xosil qilib turing lekin, biron-bir bolaga orqa o'tirib kolmasligi uchun doira o'rtasida turmasin. Murabbiy qisqa va tushunarli qilib tushuntirsin. Buni u ayrim kisimlarini yoki butun o'yinni ko'rsatib bajarmogi lozim. Barcha yoki ayrim bolalar uni takrorlasin, toki bolalar o'yin qoidalarini yaxshi o'zlashtirayotganliklariga murabbiy amin bo'lsin.

Boshqaruvni tarbiyachi yoki bolalar belgilasin yoki bolalar yoqtiradigan sanoq she'r yordamida aniqlansin. Sanoq she'r har doim qofiyali bo'ladi. U quvnoq, xazilnamo ham ham bo'lishi mumkin. Odatda, bolalardan biri she'rni ayta boshlaydi, har bir so'zni talaffuz etar ekan davrada turgan o'yin ishtirokchilariga birdek ishora qilib boradi. Sanoq she'rning so'ngi tushgan o'yinchi o'yinni olib boradi.


3.Didaktik o'yinlar yordamida bolalar og'zaki hisoblash malakasini shakllantirish.

O'quvchilarni og'zaki hisoblashga o'rgatishning muhim yetakchi metodlardan biri didaktik o'yinlar. Bolalar fakat o'kish mobaynida o'rganib kolmay, balki o'yin jarayonida ham o'rganadilar. Bunda didaktik o'yinlarni dastur talabiga mos ravishda tanlash kerak bo'ladi. O'yin vaktida bola faoliyati aktivlashadi, ularning erkin dikkati va xotiralari rivojlanadi.


1 sinif matematika darslarida o'quvchilarning o'zlari va yozma hisoblash malakalarini oshirishda "O'ringni top", "Kim oldin", "Chapaklar", "Topishmoq" kabi o'yinlar kata yordam beradi.

O'ringni top o'yini quyidagicha o'tkaziladi. Qizlar juft raqamlarni 2, 4, 6,


8, 10, O‘gil bolalar tok sonlarni 1, 3, 5, 7, 9, va (+) (-) (=) ishoralarini ushlab doira shaklida turadilar. Xat tashuvchi qizlarga xat olib keladi. Masalan:



1-o‘quvchi




2-o‘quvchi



3-o‘quvchi

Shu raqamlarni bolalar va ularning javoblari doiradan chiqib, misol kabi turib olishlari kerak. O‘z o‘rnini tezda to‘gri topgan bola o‘yin g‘olibi bo‘ladi.

“Kim oldin” o‘yini guvox bo‘yicha o‘tkaziladi. Bunda 3 ta o‘quvchi doskaga chiqarilib, musobaqar sharti tushuntiriladi. Kim oldin 5 ta yozish:



Qaysi o‘quvchi tez va chiroyli chizsa, o‘sha qator g‘olib chiqadi.

“Chapaklar” o‘yini o‘quvchilarning eshitib, sanash qobiliyatlari oshiriladi. Necha marta qarsak urilsa o‘sha son xosil bo‘ladi. Bolalar buni tinglab, ichlarida sanab turadilar. To‘gri sanagan o‘quvchilar ragbatlantiriladi.

“Topishmoq” o‘yini ham juda qiziqarli. O‘quvchilardan biri “Menda hammasi bo‘lib 5 ta cho‘p bor, 1 ko‘limda 3 ta, 2 – sida nechta bor?”, deb so‘raydi. Bolalar javob beradilar. O‘yin shu tariqa davom etadi.

“Sonning tarkibini toping” o‘yinida magnit do‘skasida 9 raqami ko‘rsatiladi va u qanday sonlardan tuzilganligini so‘raladi. O‘quvchilar magnit do‘skasida ko‘rsatishadi.

$$8 + 1 = 9$$

$$6 + 3 = 9$$

$$7 + 2 = 9$$

$$5 + 4 = 9$$

Bu o‘yin orqali o‘quvchilar sonining tarkibini aniqlaydilar.

“Moxir hisobchi” o‘yinida sinf taxtasiga 3 ustundan iborat millionlar yoziladi. Har bir qatordan 1 tadan o‘quvchi chiqariladigan tegishli ustundagi misolni yechiladi. Tez bajargan o‘quvchi moxir hisobchi bo‘ladi.

“O‘ylab top” o‘yini boshlang‘ich sinflarning hammasida, o‘zlari uchun

ajratilgan hisob vaqtlarida o'tkaziladi. Bu o'yin bolalarda qiziqishni, faollikni kuchaytiradi. Do'skada bir necha misollar berilgan bo'ladi. O'qituvchi aytadi: -bu misollardan birining javobi 30. Men qaysi misolni yechdim. O'quvchilardan biri javob beradi. O'qituvchi hamma misollar yechilib tamom bo'lguncha, o'yinni davom ettiradi.

“Kim tezroq” o'yini uchun sonlar yoziladigan kvadratlardan foydalaniladi 4 ta o'quvchini chiqarib, ularga kvadratlariga yozilgan sonlarning qatori ko'rsatiladi. Kim o'ziga berilgan qatordagi sonlar yigindisini tezroq va to'g'ri aytsa, shu o'quvchi g'olib hisoblanadi. Bunday jadvallar sinfga va bolaning bilimiga qarab tuziladi. Buni ko'proq qo'shish ayrishni o'rgatishda qo'llash mumkin:

200	120	300	280
420	180	250	120
800	300	150	130.

Tomoshabinlardan tashqari bolalarga qo'shiq-hisob va she'r-hisoblar berish ham ularning qiziqishlarini orttiradi. Ulardan misollar keltiraylik.

Shohdadir 7 qush, uchib ketsa 5 tasi bu shohdadir 3 Qush, Shohda qolar nechitasi?
Azam tutdi 4 sazan, Bolta tutdi 2 laqqa, Chori tutdi 3 cho'rtan, nechta baliq chiqdi qirgoqqa?

Oyim berdi 5 anor

O'zimda ham 3 ta bor

Sanab bilsang ayta qol

Menda nechta anor bor?

O'zimda bor 5 yong'oq

Cho'ntagimda 2 tasi

Do'stimda ham shuncha bor

Hamma yong'oqlar qancha?


O'quvchilarning o'zlari hisoblashga o'rgatishning yana bir usuli yevristik suxbatdir. Bunda o'qituvchi tayyor bilimlarni o'yin harakteriga ega bo'lgan savollar orqali o'quvchilarga beradi:

“Loto” o‘yini.

O‘qituvchi stol yonida turib, ko‘paytirish jadvaliga tegishli birorta sonni ko‘rsatadi, masalan, besh. Bolalarning qo‘lidagi kartochkalarida esa ko‘paytirishga doir misollar bo‘ladi. Ular tegishli kartochkalar 544; 445 ni ko‘rsatishlari mumkin.

“Doirani aylantirish” o‘yini.

Bu o‘yindan maqsad o‘quvchilarda hisoblash malakasini xosil qilish. Doira rasimida ko‘rsatilgandek, sonlar yozishib, doira tashqarisida 1 ta son belgilanadi. So‘ng 2 o‘quvchi doskaga chiqariladi. Ulardan biri doirani aylantiradi. Nuqta to‘g‘risiga qaysi son kelib to‘xtasa, o‘sha sonlarga qarab avval qo‘shish, keyin ayirishga doir misol tuzadi va yechadi. Keyin navbatdagi 2 ta o‘quvchi chiqadi va o‘yin shu tariqa davom ettiriladi.



“Bir sonning o‘rniga ikki son” o‘yini.

Bu o‘yindan maqsad yangi o‘tilgan son tartibini o‘rganish.

Bu o‘yinda hamma o‘quvchilarning oldida raqamli kartochkalar bo‘ladi. O‘qituvchida kattaroq raqamli kartochka bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga kattaroq son kartochkasini ko‘rsatadi, masalan 4. O‘quvchilarga tarkibi 4 bo‘ladigon 2 va 2, 3 va 1, 1 va 3, raqamlarini ko‘rsatadilar. To‘g‘ri ko‘rsatgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

“O‘qituvchi” o‘yini.

Bu o'yindan maqsad, geometrik shakllarini farqlay bilishiga o'rgatish.

Bu o'yinda bolalardan biri o'qituvchi vazifasini o'taydi. U bolalarga biror shaklni ko'rsatadi, uni nima deb atalishini so'raydi. Bolalar o'qituvchiga javob berganda javob beradilar. Shu tariqa boshqa bolalar ham o'qituvchi bo'lib, o'yinni davom ettiradilar.

“Kim tezroq aytadi” o'yini.

O'yin maqsadi tez va to'g'ri aytish malakasini o'stirish.

O'yinda o'qituvchi sonlarni aytadi. O'quvchilar aytilgan sondan oldin keladigan keyin keladigan sonlarni aytishi kerak. Masalan, sanaganda 4 dan oldin qaysi son keladi? 3 dan keyin qaysi son keladi? 8 dan oldinchi? Kabi savollarga javob bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Matematik o'yinlar, avvalambor sinfda o'tkazilgan har bir darsni mustaxkamlash uchun olib boriladi. Sinfidan tashqari ularning asosiy shakllardan biri bo'ladi qiziqarli matematika soatlari minutlari ham bolalarni bu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, yana bilimdon, hozir javob, bilimlarni ixtiyoriy ravishda o'zlashtirishga xizmat kiladi.

1-sinfda qiziqarli matematik soatlarining taxminiy konspekti. Bugun biz qiziqarli matematikadarsi o'tamiz. Nima bilan shugullanishimizni hozir bilib olasiz. Juda ziyrak bo'lishingiz kerak. Mening beradigon savollarimga o'ylanib javob beringlar. Savollarimga kim tez va to'g'ri javob bersa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

1 - “O'ylab top”

Beshtata goz bizning ustimizdan uchib o'tdi, 2 tasi bulut tepasidan o'tdi, 2 tasi daryoga tushdi. Nechta goz xavoda?

2 – topishmoqlarni toping va masalalarni yeching.

Yolimni 1ritar 2 chirokcha

Chirokcha ustida pilik kalamcha.

(Ko'z, qosh).

Ikkita uchi bor-u, ikki xalqali o'rtasida bitta tixchasi

(qaychi).

Og'zida 4 tishi bor, yegani pichan

Qani, ayting bolalar, bu nima ekan?

(rasmi ko'rsatiladi) (panshaxa)

Biri qo'yadi, ikkinchisi ichadi, uchinchisi o'sadi (yomgir, yer, o'simlik)

Bola o'ndan o'nni ayirgan, o'n xosil qilgan. Bu qanday bo'lgan?

(qo'lqoplarni yechgan)

Bir likopchada 4 nok bor. Bu noklarni 4 o'quvchi teng bo'lib bering va likopchada fakatgina bitta nok qolsin.

(1 ta nok o'quvchiga likopchasi bilan beriladi).

Mening 8 ta oshnam.hammasi ham mendan kam sen 10 gacha sanasang meni aytmay ko'ymasang.

(To'qqiz)

Sulton tutdi 13 cho'rtan 4 sazan

Azam tutdi 2 laqqa

Necha balik chiqdi qirgoqqa (19 baliq)

“O'ng tomon, chap tomon” o'yinini o'tkazish. Maqsad o'ng va chap tomon tushunchalarini anglashdan iborat. O'ynovchilar. Soni cheklanmaydi.

O'ynovchilar 2 guruxga bo'linib, qator turadilar. Har 2 qator boshqaruvchining buyrug'iga binoan qarama-qarshi tomon yuradi. Boshqaruvchining “o'ngga”, “chapga” degan buyrug'i bilan o'quvchilar tegishli tomonga buriladilar va to'xtaydilar. Yanglishgan o'yindan chiqadi. Kegin davom etadi. Qaysi guruxda o'quvchi ko'p qolsa, o'sha gurux g'olib bo'ladi.

Ikki teng kvadratdan qanday to'g'ri uchburchak yasash mumkin?

Kvadrat shaklidagi qog'oz varog'idan shunday konvert yasash mumkin?

Mashg'ulot yakunida, albatta, umumlashtiruvchi yakun bo'lishi kerak. Keyingi mashg'ulot uchun o'quvchilar istak-xoxishlari va fikrlari so'raladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. I.A.Karimov “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi 2012 yil, 18-fevral, 35-soni.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T – 1998 y.
3. I.A.Karimov “Istiqlol va ma’naviyat” Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti. 1994 y.
4. O‘zbekiston mustaqillik odimlari. T – 1995 y. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” Toshkent “Sharq” nashriyoti. 1999 y.
5. I.A.Karimov “Ma’naviyat yuksalish yo‘lida” Toshkent “O‘zbekiston” 1998 y.
6. Sh.Nasriddinova, G.Nasriddinova “O‘ynab, o‘ynab o‘qiymiz”. “Xalq ta’limi” jurnali №4 2001 y.
7. Saidahmedov N.S. Ochilov A. “Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi”. “Xalq ta’limi” jurnali № 1 2004 y.
8. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. Toshkent – 2003 y.
9. Sh.Qurbonov. “Kadrlar tayyorlash milliy modeli”. “Xalq ta’limi” jurnali № 4 1998 y.